

## IQLIM O‘ZGARISHLARINI YORITISHDA DATA JURNALISTIKANING O‘RNI

*Mahfuza PO‘LATOVA*

*O‘zJOKU internet jurnalistika yo‘nalishi*

*2-bosqich magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada auditoriyaga global iqlim o‘zgarishlari haqida samarali ma’lumot berishda data jurnalistika materiallarining ahamiyati va imkoniyatlari o‘rganiladi. Bugungi kunda jurnalistlarning iqlim o‘zgarishiga oid mavzularga kam murojaat qilish sabablari tahlil etiladi. Shuningdek, **cambojanews.com internet nashrida data jurnalist Nehru Pry tomonidan chop etilgan** “Kambodja yerlarini bosib olish odamlarga, o‘rmonlarga va iqlimga xavf tug‘diradi” sarlavhali data materiali misol sifatida keltiriladi. Maqoladan kelib chiqib, data material tayyorlashda qaysi omillarga ahamiyat berish kerakligi aytib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** iqlim o‘zgarishi, ma’lumotlar jurnalistikasi, data jurnalist, vizualizatsiya, o‘rmonlar qisqarishi, Kambodja, statistika, uslub, auditoriya.

So‘nggi yigirma yildan buyon iqlim o‘zgarishi va global isish insoniyatning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda. Iqlim o‘zgarishi Yer tizimidagi turli xil geologik, kimyoviy, biologik va geografik omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga kelgan Yer iqlimining davriy o‘zgarishidir<sup>54</sup>. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, okean sathining ko‘tarilishi, muzliklar erishi, o‘rmon yong‘inlari, suv toshqinlari, issiqxona gazlarining havoga chiqishi natijasida havo haroratining keskin isishi kabi omillar iqlim o‘zgarishining yaqqon ko‘rinishlaridir.

Bilamizki, ommaviy axborot vositalari orqali iqlim o‘zgarishining sabab va oqibatlarini ko‘p va xo‘p yoritilgan. Bundan maqsad nafaqat jamoatchilik e’tiborini global muammoga qaratish, hozirgi vaziyat va kelgusida dunyo hamjamiyatini kutayotgan ekologik inqirozlar haqida xabardor qilish, balki hukumat va aholini iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammoni hal qilish uchun muhim chora-tadbirlar ko‘rishga undashdir. Biroq bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida iqlim o‘zgarishi haqida

<sup>54</sup> Stephen T. J. Climate change. – URL: <https://www.britannica.com/science/climate-change> (murojaat sanasi: 26.05.2023).

shunchaki xabar berish yoki statistika keltirish bilan jamoatchilikning tashvishi va faolligini oshirish oson emas. Buning uchun jurnalistdan ma'lumotni ishonchli, ta'sirchan, qiyosiy va vizual uslubda yoritish talab etiladi. Bunda data jurnalistika ushbu masalalarning barchasiga e'tiborni kuchaytirish zarurligi haqida xabardorlikni oshirishning muhim vositasiga aylanadi<sup>55</sup>.

Ma'lumotlarga asoslangan hikoyalar biz yashayotgan ma'lumotlarga boy dunyoni anglash orqali yangi auditoriyaga yetib borish va ularni jalb qilish kuchiga ega. Shuni yodda tutish kerakki, ma'lumotlar jurnalistikasi yangi yorqin texnologiyalardan foydalanish emas, balki auditoriyaga kontekstli ma'lumotlarni olishda yordam berish uchun texnologiyadan foydalanishdir<sup>56</sup>. Boshqa jurnalistlar bilan solishtirganda, data jurnalistlar faqat ma'lumotlar yordamida aytilishi mumkin bo'lgan hikoyalar yaratish va shu tariqa analog jurnalistik usullar yordamida topib bo'lmaydigan aloqalarni ochib berish nuqtai nazaridan ajralib turadi<sup>57</sup>.

Iqlim o'zgarishi boshqa ko'plab muammolar bilan solishtirganda, "ko'zga tashlanmaydigan" mavzudir. Buning bir qancha o'ziga xos sabablari mavjud. Buning asosiy sababi shundaki, iqlim va uning o'tmishi, hozirgi yoki kelajakdagi rivojlanishini osongina kuzatish mumkin emas. "Iqlim" atamasi harorat, yog'ingarchilik, shamol va boshqalar kabi ob-havo ko'rsatkichlarining o'rtacha statistik ko'rsatkichlarini anglatadi. Iqlim haqida gapirish uchun bu ko'rsatkichlarni makon va vaqt nuqtai nazaridan keng miqyosda kuzatib borish va tavsiflash kerak<sup>58</sup>. Masalan, biz O'zbekistondagi iqlim o'zgarishi va buning sabablarini tahlil qiladigan bo'lsak, bizga harorat o'zgarishlariga oid kamida 20 yillik ma'lumotlar kerak bo'ladi. Yillarni qiyosan tahlil qilganda, iqlim o'zgarishining asosiy sabablaridan kelib chiqib, O'zbekistondagi muammoni keltirib chiqarayotgan sabablar, ularning yillar davomida

<sup>55</sup> Appelgren E., Yonsson A. Engaging Citizens for Climate Change — Challenges for Journalism // Digital Journalism. – 2020. – № 9. – P. 755-772.

<sup>56</sup> Haddad M. Understanding data journalism. – URL: <https://institute.aljazeera.net/en/ajr/article/2104> (murojaat sanasi: 16.03.2023).

<sup>57</sup> Mutsvairo B., Bebawi S., Borges-Rey E. Expectations, Challenges, and Expertise: The Importance of Non-Western Data Journalism // Data journalism in the Global South. – Helsinki: Palgrave Macmillan, 2020. – P. 21-35.

<sup>58</sup> Schäfer M. – Climate Change and the Media // International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. – 2015. – № 3. – P. 853-859.

havo haroratiga ta'sir ko'rsatishi analiz qilinadi va kelgusida kutilayotgan o'zgarishlar prognoz qilinadi. Muammoning kam yoritilishining ikkinchi sababi uning murakkabligidir. Iqlim va uning o'zgarishlari, birinchi navbatda, olimlar tomonidan kuzatiladi va qayta tuziladi, ularning natijalari juda murakkab va ko'pchilik uchun tushunish qiyin<sup>59</sup>. Buning uchun jurnalistdan gidrometrologiya sohasi bo'yicha xabardorlik yoki ma'lumotlarga aniqlik kiritish maqsadida shu soha vakillari bilan hamkorlik qilish talab etiladi. Uchinchidan, data jurnalistlar ma'lumotlar bazasini tekshirish kabi qiyin vazifaga duch keladi<sup>60</sup>. Ochiq ma'lumotlardan foydalanishning tengsizligi va axborot erkinligi qonunchiligi jurnalistlarni yetarli ma'lumot olishga urinishlarida qiyinchiliklarga olib keladi va bu ularni fuqarolik jamiyati tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar yoki tadqiqot tashabbuslari tomonidan to'plangan uchinchi tomon ma'lumotlariga tayanishga sabab bo'ladi.

Nashr etilgan ma'lumotlar jurnalistikasi loyihalari ko'pincha statistik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va shuning uchun fanga o'xshab ko'rinishi mumkin. Lekin aslida ma'lumotlar jurnalistikasi ilmiy va jurnalistik standartlar o'rtasidagi muvosani anglatadi<sup>61</sup>. Agar ilmiy tadqiqotlardan juda ko'p ma'lumot taqdim etilsa, bu yangiliklar qiymatini pasaytirishi va auditoriya statistik ma'lumotlarning yanada murakkab taqdimotlarini tushuna olmasligi mumkin. Shuning uchun, data jurnalistning vazifasi, materialni statistik ma'lumotlarni asoslaydigan hayotiy dalillar va hikoyalar bilan boyitishdir. Masalan, 2022-yil avgust oyida **cambojanews.com** internet nashrida data jurnalist **Nehru Pry** tomonidan "Kambodja yerlarini bosib olish odamlarga, o'rmonlarga va iqlimga xavf tug'diradi" sarlavhali data material<sup>62</sup> e'lon qilingan. Maqola Song Pro ismli 60 yoshli fermer ayolning hayotiy hikoyasi bilan boshlanadi. U salkam yigirma yil oldingi voqeani eslar ekan, Indochinadagi urush

<sup>59</sup> Schäfer M. – Climate Change and the Media // International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. – 2015. – № 3. – P. 853-859.

<sup>60</sup> Mathias-Felipe de-Lima-Santos – Setting an Agenda to Tackle Environmental Issues with Data and Collaboration // Journalism practice. – 2022. – № 16. – P. 540-560.

<sup>61</sup> Appelgren E., Yonsson A. Engaging Citizens for Climate Change — Challenges for Journalism // Digital Journalism. – 2020. – № 9. – P. 755-772.

<sup>62</sup> Pry N. Cambodia's land grab endangers people, forests, and the climate. – URL: <https://cambojanews.com/deforestation-and-land-concessions/> (murojaat sanasi: 05.08.2022).

Kambodjaga kelganida, o'rmon uni Amerika bombardimonchilaridan saqlab qolganini ta'kidlaydi. Ya'ni daraxtlar shu qadar ko'p bo'lganki, ular insonni xavfdan yashirish uchun himoya vazifasini o'tagan. Biroq 2008-yilda hukumatning sanoatni yaxshilash haqidagi bahonalari sabab, daraxtlar birin-ketin kesila boshlagan va natijada Kambodja so'nggi yigirma yil ichida o'rmon qoplaminin uchdan bir qismini yo'qotgan. Maqolada o'rmonlar qisqarishining davriy ketma-ketligi, buning aholi va ekologiyaga ta'siri vizual tarzda hayotiy hikoyalar, statistika va qiyosiy tahlillardan foydalangan holda shunday ko'rsatib berilganki, o'quvchi maqolani hech bir qiyinchiliksiz tushunib o'qiydi. Shuningdek, maqolani o'qish orqali yashillikning inson va atrof muhit uchun ahamiyati, o'rmonlar qisqarishi muammosining dolzarbligi va buning iqlim o'zgarishiga nechog'lik ta'sir ko'rsatishi haqida xulosa chiqarish mumkin.


Demak, jurnalist iqlim o'zgarishlari haqida yozayotganida, so'zlar va vizuallarning birgalikda samarali ishlashini ta'minlashi kerak. U nafaqat statistik ma'lumotlarni ko'rsatishi, balki ma'lumotlarni sodda uslubda tushuntirishi va o'quvchilarning vizual savodxonligini oshirishga yordam berishi kerak. Tadqiqotlarga ko'ra, inson miyasi tasvirlarni matndan 60 000 marta tezroq qayta ishlaydi<sup>63</sup>. Bundan anglashiladiki, global muammolarni data jurnalistikaning imkoniyatlaridan foydalangan holda, auditoriyaga taqdim etish uning oson qabul qilinishi va ta'sir doirasini oshirishga xizmat qiladi.

“Vizualizatsiya tasvir emas, argumentdir va uning maqsadi illyustratsiya emas, balki tushunchadir<sup>64</sup>”, deydi Mayami universiteti qoshidagi ma'lumotlar fanlari va hisoblash institutining vizualizatsiya, ma'lumotlar kommunikatsiyasi va axborot dizayni bo'yicha direktori Alberto Kair. Demak ma'lumotni vizuallashtirishda uning tushunarli bo'lishiga ham e'tibor qaratish lozim. Masalan, quyidagi rasmga e'tiborimizni qaratsak.

<sup>63</sup> Alexis C. 29 Incredible Stats that Prove the Power of Visual Marketing. – URL: <https://movableink.com/blog/29-incredible-stats-that-prove-the-power-of-visual-marketing> (murojaat sanasi: 17.10.2022).


<sup>64</sup> Philp R. My Favourite Tools: Alberto Cairo on Data Visualization. – URL: <https://gijn.org/2020/11/24/my-favorite-tools-alberto-cairo-on-data-visualization/> (murojaat sanasi: 24.11.2020).

## ORIGINAL



1-rasm.

## MAKEOVER



2-rasm.

1-rasmda COVID-19 ma'lumotlari Jorjiya Sog'liqni saqlash departamentining chalkash chiziqli grafigi asosida berilgan. Alberto Kair esa jadvalni okrug bo'yicha guruhlab, yangi jadval (2-rasm) tuzgan va ma'lumotlarni xronologik tartibda joylashtirgan. Ikkala jadvalni qiyoslaydigan bo'lsak, haqiqatan birinchisi ancha tushunarsiz va murakkab tarzda berilgan, ikkinchisida esa davriy o'zgarishlar yaqqol aks etib turibdi.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muz qatlamlari erishi, qutb ayiqlarining nobud bo'lishi yoki dengiz sathining ko'tarilishi to'g'risidagi faktlarni ko'rsatib, odamlarni iqlim o'zgarishi haqida "qayg'urishga" majbur qila olmaymiz. Biz ma'lumotni tushunishga oson va ta'sirchan uslubda taqdim etishimiz va jamoatchilikka biz taqdim etgan ma'lumotlarga asoslanib, o'z xulosalarini chiqarishiga imkon berishimiz kerak. Data jurnalistika auditoriyaga shunchaki manbalar va faktlarni tashlash orqali emas, balki ularning his-tuyg'ulari va qadriyatlarini orqali aloqa o'rnatish vazifasini bajaradi. Shuning uchun, jurnalistlar ma'lumotlar jurnalistikasining vizual va hikoya qilish imkoniyatlaridan foydalanishlari zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Stephen T. J. Climate change. – URL: <https://www.britannica.com/science/climate-change> (murojaat sanasi: 26.05.2023).

2. Appelgren E., Yonsson A. Engaging Citizens for Climate Change — Challenges for Journalism // Digital Journalism. – 2020. – № 9. – P. 755-772.
3. Haddad M. Understanding data journalism. – URL: <https://institute.aljazeera.net/en/ajr/article /2104> (murojaat sanasi: 16.03.2023).
4. Mutsvairo B., Bebawi S., Borges-Rey E. Expectations, Challenges, and Expertise: The Importance of Non-Western Data Journalism // Data journalism in the Global South. – Helsinki: Palgrave Macmillan, 2020. – P. 21-35.
5. Schäfer M. – Climate Change and the Media // International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. – 2015. – № 3. – P. 853-859.
6. Mathias-Felipe de-Lima-Santos – Setting an Agenda to Tackle Environmental Issues with Dataand Collaboration // Journalism practice. – 2022. – № 16. – P. 540-560.
7. Pry N. Cambodia’s land grab endangers people, forests, and the climate. – URL: <https://cambojanews.com/ deforestation-and-land-concessions/> (murojaat sanasi: 05.08.2022).
8. Alexis C. 29 Incredible Stats that Prove the Power of Visual Marketing. – URL: <https://movableink.com/blog/29 incredible -stats-that-prove-the-power-of-visual-marketing> (murojaat sanasi: 17.10.2022).
9. Philp R. My Favourite Tools: Alberto Cairo on Data Visualization. – URL: <https://gijn.org/2020/11/24/my-favorite-tools-alberto-cairo-on-data-visualization/> (murojaat sanasi: 24.11.2020).